

- Innovatsion moliyalashtirish usullarini joriy etish: Masalan, "yashil obligatsiyalar" yoki "infratuzilma obligatsiyalari" kabi innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanish.

- Korrupsiyaga qarshi kurash: Infratuzilma loyihalarida shaffoflikni oshirish va korrupsiyaga qarshi choralarni kuchaytirish.

- Davlatning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish: Soliqlarni samarali yig'ish va byudjet resurslarini optimallashtirish orqali davlatning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish.

2-jadval

Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishdagi muammolar va ularni hal qilish choralari

Muammo	Hal qilish chorasi	Natija
Moliyaviy resurslarning cheklanganligi	Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish	Qo'shimcha moliyaviy resurslar jalb qilinadi
Investitsion risklar	Innovatsion moliyalashtirish usullarini joriy etish	Investorlar uchun risklar kamayadi
Qonuniy bazaning yetarli emasligi	DXSh loyihalari uchun qonuniy bazani yaxshilash	Investorlarning ishonchi oshadi
Korrupsiya va byurokratiya	Shaffoflikni oshirish va korrupsiyaga qarshi choralarni kuchaytirish	Loyihalarning samaradorligi oshadi

Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish davlat va xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlikni talab qiladi. DXSh loyihalari, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik va innovatsion moliyalashtirish usullari infratuzilma loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy omillari hisoblanadi. Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurash va qonuniy bazani yaxshilash infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish jarayonini yanada samarali qiladi. Ushbu tezis infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishning dolzarb muammolarini hal qilish va ularni takomillashtirish yo'llarini ko'rib chiqdi, bu esa iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Yunusova Ug'iloy Bolqiboy qizi

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi doktoranti

Turizm industriyasini rivojlantirish va raqamli vositalardan foydalanish orqali uni samarali tarzda o'zgartirish jarayonida, turizm industriyasining mohiyatini anglash juda muhimdir. Oddiy qilib aytganda, turizm industriyasi – bu odamlarning bir joydan ikkinchi joyga, asosan, o'z asosiy yashash joylaridan uzoqroqqa sayohat qilishlari bilan bog'liq barcha tadbirlar va faoliyatlarning

yig'indisidir. Turizm sanoati dunyodagi eng yirik va milliy boylik yaratish hamda iqtisodiy kengayish bo'yicha eng daromadli sohalardan biridir. Ko'plab mamlakatlar o'z turizm sohasiga katta e'tibor qaratib, global standartlarga mos kelishi uchun o'zining turistik joylariga ko'plab resurslar yo'naltirib kelishmoqda. Bu ularga iqtisodiy jihatdan katta daromad keltirishini isbotlagan. Turizm sanoati keng qamrovli bo'lib, boshqa sohalarga qaraganda ko'proq aktiv bo'lgan faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Shuni tushunish joizki, bu sohalarning ba'zilari turizm sanoatiga nafaqat zavq olish uchun, balki biznes safarlari va boshqa turizmga sabab bo'luvchi omillar tufayli ham bog'liqdir. Masalan, boshqa mamlakatda nikohdan o'tish marosimi o'tkazish kabi sabablardir.

Turizm industriyasi - "Turizm mahsulotini yetkazib berishda ishtirok etuvchi korxona va tashkilotlar to'plami" sifatida belgilanadi. Bu keng tarmoq tijorat va notijorat tashkilotlardan iborat bo'lib, sayohatchi va turistlarning ehtiyojlarini qondirish umumiy maqsadi bilan bog'langan tizim sifatida faoliyat yuritadi.¹⁶

"O'zbekiston-2030" strategiyasida turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha maqsad va vazifalar belgilangan. Jumladan, 2030-yilga qadar xorijiy sayyohlar sonini 15 million nafarga, ichki sayyohlar sonini 25 million nafarga, ziyorat turizmi bo'yicha keladigan sayyohlar sonini 3 million nafarga yetkazish ko'zda tutilgan. Shuningdek, xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga respublikada mehmonlar uchun mo'ljallangan o'rinlar sonini kamida 2 barobar oshirish, turizm mahallalari sonini 175 taga, turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga, tibbiyot va ta'lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard dollarga yetkazish belgilangan. Bundan tashqari, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash bobi, 35-maqсадida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish belgilangan bo'lib, bu asosida:

- to'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish. 2026-yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish;

- turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish bo'yicha davlat dasturini qabul qilish;

- Samarqandni "Turizm darvozasi"ga aylantirish orqali kelgusi besh yilda turizm xizmatlari hajmini kamida 10 baravarga oshirish. Turizm sohasida 40 ming kishi bandligini ta'minlash. 2022-yilda "Abadiy shahar" tarixiy majmuasini o'z ichiga olgan Samarqand turizm markazini va zaruriy infratuzilmani tashkil etish;

- Xorazm viloyatida turizm yangi ish o'rinlarini yaratishda asosiy drayver soha bo'lishi uchun alohida dastur qabul qilish;

¹⁶ D. Buhalis et al. Progress in information technology and tourism management: 20 years on and 10 years after the Internet – the state of eTourism research Tourism Management (2008)

- Toshkent viloyatida turizm salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqish kabi vazifalar belgilangan. Albatta bu vazifalarning ijrosini taminlash maqsadida bir qator professor olimlar, tadqiqotchilar, turizm eksportlari tamonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.¹⁷

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 18 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida to'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-20-son qaroriga muvofiq mamlakatimizda turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, sohada taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va jahon bozorlarida milliy turizm mahsulotlarini faol targ'ib qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, nogironligi bo'lgan shaxslarning turizm infratuzilmasi va madaniy meros obyektlarida erkin harakatlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash hamda turizm barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratishni nazarda tutuvchi to'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish ushbu sohadagi eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda¹⁸.

Adabiyotlar tahlili. Turizm infratuzilmasining mazmuni, uning mamlakat iqtisodiyotga ahamiyati, ijtimoiy rivojlanishga ta'siri xorijiy hamda O'zbekistonlik olimlar tamonidan turli ilmiy nazariy qarashlar tarzda yondashib o'rganilgan.

Hensenning fikricha, infratuzilma bu-ijtimoiy va iqtisodiy umumiy kapitalning yig'indisi hisoblanadi. Ya'ni, Iqtisodiy kapital ishlab chiqarish faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lsa (masalan, yo'llar, ko'chalar, ko'priklar va boshqalar), ijtimoiy kapital asosan davlat tomonidan taqdim etiladigan ijtimoiy xizmatlar (masalan, sog'liqni saqlash va ta'lim) orqali inson kapitalini oshirishga qaratilgan. Infratuzilma ko'proq rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlashga qaratilgan, dam olish maskanlari esa kundalik hayotni yaxshilanishi sifatida qaraladi.¹⁹ Svarbruk va Xorner olib brogan ilmiy ishlarida: turizm infratuzilmasi keng ko'lamli tushuncha hisoblanib, destinatsiyaning turizmni rivojlantirishga imkon beruvchi va rag'batlantiruvchi barcha elementlar bilan bog'liqdir.²⁰ Bundan tashqari, infratuzilma va rekreatsiya obyektlarining turli jihatlari turizm infratuzilmasi elementlari sifatida ko'rib chiqilishini takidladilar.

Fallon va Krivoken (2003) turistik infratuzilmada jamoatchilik ishtirokini o'rganadilar. Ular mahalliy va madaniy hamjamiyat, menejerlar va operatorlar yangi turizm infratuzilmasini rejalashtirish, loyihalash va ishlatishda qanday muhim rol o'ynashi haqida o'z xulosasida isbotlagan.²¹

¹⁷ Lex.uz O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi

¹⁸ Lex.uz O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi

¹⁹ Hadzik, A., Grabara, M. (2014), "Investments in recreational and sports infrastructure as a basis for the development of sports tourism on the example of spa municipalities", Pol. J. Sport Tourism, Vol. 21, pp. 97-101. DOI: 10.2478/pjst-2014-0010.

²⁰ Swarbrooke, J., Horner, S. (2001), Business travel and tourism, Butterworth-Heinemann, Jordan Hill, Oxford.

²¹ Fallon, L.D., Kriwoken, L.K (2003), "Community involvement in tourism infrastructure - the case of the Strahan Visitor Centre, Tasmania", Tourism Management, Vol. 24, No. 3, pp. 289-308. DOI: [https://doi.org/10.1016/S0261-5177\(02\)00072-9](https://doi.org/10.1016/S0261-5177(02)00072-9)

Michael Grospietsch fikricha, “Turizm bugungi dunyodagi eng tez rivojlanayotgan sanoatdir. U bir qator moddiy va nomoddiy mahsulotlarni o‘z ichiga oladi. Turizm turistlarning barcha bevosita yoki bilvosita o‘zaro ta’siridan sodir bo‘lgan harakatlarining ko‘p o‘lchovli funktsiyalar majmuasidir”²² deya ta’rif bergan.

A.Norchayev olib brogan tadqiqot va kuzatishlari natijasida turizm ifratuzilmasini quyidagicha tariflaydi: - “Turizm infratuzilmasi turistlarning oshib borayotgan talablarini qondirish uchun xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar va ob’ektlar majmuasidir” hamda “Turizm davlatlar iqtisodiyotini mustahkamlovchi, xalqaro aloqalarni rivojlantiruvchi, kishilarning ma’naviy va ijtimoiy ahvolini yaxshilovchi tarmoqdir”²³.

Turizm infratuzilmasi - bu turistlar oqimini qabul qilish uchun ma’lum bir hududda joylashgan obyektlar va xizmatlar to‘plamidir. Bu, asosan, aloqa, joylashuv, ovqatlanish va boshqa xizmatlar bilan bog‘liq infratuzilmadir (Wyrzykowski, 2010).

Asosiy qism. Turizmda ko‘rsatiladigan infratuzilmaga joylar, turizm mehmonxonalari, tashkilotlari, ovqatlanish korxonalari, transportlar, yo‘llar va turizm bo‘yicha mutaxassislar kiradi. Hozirgi kunda respublikamizda turizm infratuzilmasini jahon andozalariga javob beradigan qilib tartibga keltirish uchun bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda va mablag‘lar ajratilmoqda deb ayta olamiz. Turizm infratuzilmasi iqtisodiy yoki siyosiy umumiy tizimni tarkibiy qismlarga bo‘lib, yordamchi, bo‘ysunuvchi xususiyatga ega va umumiy tuzilmaning bir tekis ishlashini ta’minlashga xizmat qiladi. Infratuzilma turlarining asosiy omillarini quyidagicha guruhlashimiz mumkin: hududiy qo‘l mehnati va kerakli vosita; tunash komplekslari (otel, motel, kemping); suvning, asosan ichiladigan suvning ta’minlanishi; kanalizatsiya, telekommunikatsiya; yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlarining ta’minlanishi; sog‘liqni saqlash tizimining bo‘lishi; xavfsizlik jihatidan kerakli manbalarni ta’minlaydigan transportlar; portlar, ishonchli temir yo‘l; tarixiy yodgorliklar va an‘analarni himoya qiladigan dasturlarning ishlab chiqilishi; atrof-muhitni himoya qilish; madaniy ko‘rsatuvlar dasturi va o‘qish joylari, kutubxona, muzey, teatr, xususiy va davlatga tegishli madaniy markazlarni qurish; piyodalarni shovqinga, changga, tumanga qarshi tadbirlarini ishlab chiqish, yashil joylar va chiroyli bog‘larning barpo qilinishi; piyodalarga va velosipedchilarga mo‘ljallangan yo‘llarni, imoratlarni, o‘rindiqlarni va dam olish joylarini, axlat tashlash joylarini tartibga keltirish; turizmni kasb qilgan odamlarni o‘qitish va o‘z-o‘zlarini rivojlantiruvchi imkoniyatlarning yaratilishi; tabiiy ofatlardan saqlanish tadbirlari, yong‘inni


²² Millar, S. (1999) An overview of the sector in Leask, A. And Yeoman, I (eds.) Heritage visitor attractions: an operations management perspective, London: Thomson Learning. Page, S. and Connell, J. (2009) Tourism: A modern synthesis, 3rd edition, Hampshire: Cengage Learning EMEA.

²³ Норчаев А.Н., “Замоновий туризм инфратузилмасининг шаклланиш ва ривожланиш тенденциялари” диссертация, Тошкент-2021й.;

o'chirish xizmatlari. Turizm sohasining rivojlanishini turizm infratuzilmasisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.²⁴

Turizm infratuzilmasini tashkil qiluvchi elementlari sifatida biz turistik xizmatlar tarkibiga kirgan asosiy muhim transport xizmatlari, joylashtirish xizmatlari va ovqatlanish xizmatlari hamda qo'shimcha xizmatlarni kiritamiz. Ma'lumki, biror hududda u hudud nafaqat turizm obyekti bo'lsin, balki boshqa obyektlar bo'lishidan qat'iy nazar infratuzilma mavjud bo'lmasa iqtisodiy va ijtimoiy faollik ham bo'lmaydi. Bunda, aholining iqtisodiy faollik darajasi ham muhim omil hisoblanadi, chunki infratuzilmani rivojlantirish orqali biz yangi ish o'rinlarini tashkil etishimiz va bandlik darajasini oshirishimiz mumkin.

1-jadval Turizm industriyasining rivojlanish tarmoqlari²⁵



1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga asosan, turizm industriyasini rivojlanishi o'z navbatida bevosita hamda bilvosita iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda takidlash joizki, zamonaviy turizm industriyasi tushunchasining ilmiy-nazariy jihatdan asoslanishining tub negizida ham hozirgi innovatsion mehnat resurslarining intellektual salohiyati katta ahamiyat kasb etmoqda. Misol uchun, turizmni bugungi texnologik rivojlanish dasturlari asosida industriya zonasiga aylantirilishi, qolaversa online platformalarning tashkil etilishi yuqoridagi fikrlarimizning isboti sifatida qarashimiz mumkin.

Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda malakali kadrlarning roli katta hisoblanadi. Kadrlarni sifatli va zamonaviy qilib tayyorlash maqsadida maxsus

²⁴ Q.A. Alimov, F.S.Qutlimurotov, E.T.Rabbimov. Turizm infratuzilmasi. – O'quv qo'llanma. - Toshkent, TDIU, 2011 y - 188 b.

²⁵ Muallif ishlanmasi

o'quv dasturlari va kurslarlar tashkil qilish mumkin. Misol uchun, Samarqand shahridagi universitetlar, akademiyalar va o'quv markazlari turizm sohasidagi mutaxassislikni o'rgatish uchun maxsus o'quv dasturlari va kurslar tashkil etishadi. Bu dasturlar turizm boshqaruvini, marketing, soha iqtisodiyoti, musiqa, tarix, arxitektura va boshqa sohalarda malakani oshirish uchun mo'ljallangan. O'quv jarayonida amaliy ishlab chiqish, kasblar orqali o'quv tajribasini oshirish va xar-xil turdagi amaliyotlar tashkil etiladi.²⁶

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish o'z navbatida strategik, barqarorlik va jamiyat ishtirokini qamrab oladi. Bu omillarni baholash maqsadida quyidagi yo'nalishlar asosiy hisoblanadi.

1. Baholash va rejalashtirish. Bunda turizm bozoridagi holat, sayyohlar, turistik xizmatlar sifati, eksportlik darajasi kabi omillar hisobga olinishi talab etiladi. Bundan tashqari, turistik obyektlarning "Resurs xaritasi" ishlab chiqiladi, har bir hudud va mintaqaning geografik, iqlimiy xususiyatlaridan kelib chiqib strategik reja shakllantiriladi.

2. Infratuzilmaning rivojlanishini taminlash. Turar joy, Temiryo'llar, aeroport zonalari, suv yo'nalishlarining rivojlanishini taminlash amalga oshiriladi.

3. Barqarorlikni saqlash. Ushbu bo'limda turizm infratuzilmasining rivojlanishi jarayonida atrof muhitda tozalikga e'tibor berish, misol uchun, qayta tiklanadigan energiya va barqaror materiallardan foydalanish, ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni taminlash ko'zda tutiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Lex.uz O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 18 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida to'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-20-son qarori

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida PF-158-son Farmoni.

4. Teodora Kiryakova-Dineva, Ivanka Vasenska and Blagoevesta Koyundzhiyska-Davidkova South-West University "Neofit Rilski", Blagoevgrad, Bulgaria, "New Forms of Tourism: A Matter of Neologism Formation or Reality in the Tourism Practice" "A Virtual Conference hosted by Politechnic Institute of Porto, Portugal., 20-21 May 2021.

5. Knut Scherhag, Jens Rüdiger, Axel Dreyer "Introduction to wine tourism" article., December 2023.

6. G.Q.Abdurahmanovaning., "Turistik klasterlarning texnologik platformasini ishlab chiqish", Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2023-yil, dekabr. Maxsus son.

7. A.A.Eshtayev, "Qoraqolpog'iston Respublikasida turizm sohasining yangi yo'nalishlarini tashkil etish imkoniyatlari", Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2023-yil, dekabr. Maxsus son.

8. <https://www.rezgo.com/blog/innovative-tourism-business-ideas/>

²⁶ Raximova Umida Ziyadullayevna, "Turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirishdagi asosiy manbalar tahlil" iqtisodiy taraqqiyot va tahlil

9. A.A.Eshtayev, monograph "Uzbekistan's tourism potential and prospects for its development", 2023.

10. A.A.Eshtayev, "O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishiga global trendlarning ta'siri" <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

11. <https://uzbekistan.travel/uz/madaniy-meros/>

12. <https://www.solimarinternational.com/10-of-jobs-are-worldwide-connected-to-the-tourism-industry-what-does-that-mean/>

13. Rahmatov M.A., Zaripov B.Z., Klaster-integratsiya, innovatsiya va iqtisodiy o'sish// Zamin nashr. T.-2018, 17-bet.

14. A.A.Eshtayev. O'zbekistonning turizm salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari. Monografiya, Samarqand 2023y, 288 bet.

15. Michael. E. Porter. "Competitive advantage: creating and sustaining superior performance" 2008/6/30., https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=g9WlBh0AAAAJ&citation_for_view=g9WlBh0AAAAJ:-ZWHNkF3e00C

16. Michael. E. Porter. "Competitive advantage: creating and sustaining superior performance" 2008/6/30., https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=g9WlBh0AAAAJ&citation_for_view=g9WlBh0AAAAJ:-ZWHNkF3e00C

SANOAT KORXONALARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA "YASHIL IQTISODIYOT"NING ROLI

Yusupov Bekzod Ulug'bekovich
TDIU "Yashil iqtisodiyot" kafedrası
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisdá sanoat korxonalarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlash, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishni maqsad qilgan "yashil iqtisodiyot" tushunchasining roli hamda korxonalar uchun iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlikni birgalikda rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: "yashil iqtisodiyot", muqobil energiya manbalari, ekologik menejment, tejamkor texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmoni iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarida yangi bosqichni boshlab berdi.

Xususan, 2022-2026-yillarda iqtisodiyotning tarmoqlari havoga havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini bir birlik yalpi ichki mahsulot hisobida 20 foizga qisqartirish maqsad qilingan.

Ishga tushirilayotgan yangi ishlab chiqarish korxona va tashkilotlarda ifloslantiruvchi manbalarida samaradorligi 99,5 foizdan kam bo'lmagan chang va gaz tozalash uskunalari o'rnatishni tashkil qilish zarurligi belgilandi.